



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI  
F A R M O Y I S H

РАСПОРЯЖЕНИЕ  
ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

20<sup>25</sup> y. "27" yanvar

No 127

Toshkent sh.

**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha Markaziy bank maslahat-kengashi ishini yanada takomillashtirish to'g'risida**

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha Markaziy bank maslahat-kengashi ishini yanada takomillashtirish maqsadida, quyidagilar belgilansin:

1. Markaziy bankda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, ishiga munosib xaq to'lash, rag'batlantirish, rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish, shuningdek gender tenglikni ta'minlash masalalari yuzasidan olib borilayotgan ishlarni tahlil qilib, zarur takliflarni ishlab chiqish masalalari bo'yicha Markaziy bank **maslahat-kengash** tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Markaziy bank maslahat-kengashi zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashining 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash;

Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish;

Normativ-huquqiy va boshqa ichki me'yoriy hujjat loyihalarini gender tenglikni ta'minlash maqsadida yuridik xizmat tomonidan huquqiy (gender-huquqiy) ekspertizadan o'tkazishda bevosita ishtiroy etish.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2022-yil 5-yanvardagi 8-sonli farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Markaziy bank raisi o'rinosi A.Kamalov zimmasiga yuklatilsin.

Raisning birinchi  
o'rinosi

N. Saydullayev